



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARDA IJODIY MASHQ VA TOPSHIRIQLAR

**Yuldasheva Gavxaroy Baxodirovna**

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani 47- maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinflarda ona tilidan ijodiy topshiriqlarni ta'limga tadbiq etishning hozirgi ahvolini o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy ishlar mohiyatini yetarlicha tushunmasligi, amaliyotda yesa ijodiy topshiriqlardan kam foydalanayotganligini ko'rsatdi.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, ona tili darslari, ijodiy topshiriq, ko'nikma, samaradorlik, mashg'ulotlar;*

Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning keng miqyosda mulohaza yuritish va mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish ko'nikmalari to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu bois, birinchi sinf ona tili darslarida o'quvchilarda asosan mashq ustida ishslash ko'nikmasi shakllantiriladi. Bunda ko'proq o'qituvchi tomonidan bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarni tayyor holda beradi, o'zi savollar qo'yadi, savol va topshiriqlarning yechimini topish yo'llarini ham o'qituvchining o'zi ko'rsatadi. Bu bilan o'quvchilarga ta'lif berishda yuqori samaradorlikka yerishib bo'lmaydi. Chunki, hozirgi kunning talabi o'quvchilarni faol harakatga keltirishdan iboratdir. Shunday yekan, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni faol harakatga keltiradigan, ularni mustaqil fikrlashga undaydigan, mulohaza yuritishga chorlaydigan topshiriq va mashqlarni tavsiya etish maqsadga muvofikdir.

Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning tafakkur doirasini, og'zaki va yozma nutqini va mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim o'rinn tutadi.

Dars jarayonida o'quvchilar e'tiborini jalg etish uchun ijodiy topshiriqlarni berish lozim.

- Ona tilining o'quv predmeti sifatidagi ta'lif-tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan aloqasiga ko'ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir. - Faqat boshlang'ich sinflarning ona tili darslari uchun xarakter li metodik usullarda ish ko'rishda.

-O'quvchilarga o'quv materialining hissiy ta'sir etishida.

- Faqat ona tili darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish jarayonida.

- Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida ijodiy topshiriqlardan foydalanish, balki unga tayyorgarlik haqida ham gap boradi, chunki o'quvchilar bunday topshiriqni qabul qilishga oldindan psixologik, mantiqiy tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari kerak:

- Boshlang'ich sinflardagi ijodiy topshiriqlar o'quvchilaming doimiy ravishda mashg'ul bo'lishi bilan bog'liq. Mashg'ul bo'lish ijodiy topshiriqlarni bajarish holatiga olib keladi.



Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida olib borgan mashg'ulotlarimiz natijasida ijodiy topshiriqlarni yaratishning quyidagi metodik usullarini ishlab chiqdik:

1.O'quvchilarni bayon qilinayotgan mavzudagi umumiylig va xususiylikni aniqlash maqsadida berilgan mashqlarni tahlil qilish va qiyoslash. Masalan, 3-sinfda "O'zak va o'zakdosh so'zlar" mavzusini o'tayotganda gul, gulla, gulzor, guldon so 'laridan gap tuzish bo'yicha o'quvchilarga topshiriq beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlarning ma'nou xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishga kirishadi.

2. Tanish topshiriqni hal yetishda o'quvchilar oldiga yangicha yondashuvni talab yetadigan amaliy topshiriqlarni qo'yish. Masalan, 1-sinf o'quvchilari hali unli va undosh tovushlar bilan tanishmay turib, so'z necha bo'g'indan iboratligini faqat talaffuz orqali topish topshirig'i beriladi. Unli va undosh tovushlar bilan tanishgach yesa, unli tovushlar bo'g'in hosil qilishini bilib oladilar va shunga qarab so'zlarning nechta bo'g'indan iborat ekanligini aniqlaydilar.

3. O'quvchilarning amaliy topshiriqlami mustaqil bajarishda yuzaga keluvchi hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ularni bajarish va tahlil qilish. Masalan, 1-sinfda bo'g'in ko'chirish qoidalari bilan tanishtirishda, bo'g'in ko'chirishning zarurligi misol tarzida keltiriladi. Ya'ni sarkarda so'zining keyingi ikki bo'g'ini qatorga sig'may qoldi. Nima qilish kerak? Tarzida savol bilan murojaat qilinadi.

Ijodiy topshiriqlarning bu turlari shartdli ravishda ajratilgan bulib, amalda o'quvchilar bir tushunchaning o'zini o'rganishda faktlarni tahlil qilish va sintez qilishni taqqoslash va umumlashtirish bilan qo'shib olib boradi. Lekin aytib o'tilgan tafakkur usullaridan biri - tushuncha yetakchi o'rinda turadi. Ijodiy topshiriqlar berib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilarni yana fikr yuritishga, ammo yendi faraz qilish, muhokama yetish va xulosalar chiqarishga qaratadi. Bilish muammolarini ilgari surish va hal qilish jarayonlari uzlucksiz zanjirga o'xshab qo'shilib ketadi. Chunki ijodiy topshiriqlarni o'quvchilarga berar yekanmiz, bir vaqtning o'zida uni bajarishga kirishamiz. Bu esa, o'z navbatida, yangi topshiriqni keltirib chiqaradi.

Ona tili ta'lifi jarayonidagi ijodiy topshiriqlar tizimi muommali suhbatlar, fikr yuritish, isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar hisoblanadi. Ijodiy topshiriq mashqlari o'quvchilar topshiriqni bajara oladigan bo'lgandagina qo'llaniladi. Bunday mashqlar, ayniqsa, yuqori sinf darsliklarida ko'p berilgan. Unda berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar yangi bilimlar bilan qurollantiriladi. Ijodiy topshiriqlardan yangi mavzuni o'zlashtirish bilan birgalikda bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashda ham qo'llash mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R., Rixsiyeva M. Umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarining yangi avlodiga qo'yilgan talablar. -T.: 2001.
2. Seyitxalilav Ye., Abdullayev Sh. O'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish-milliy dastur talabi // Xalq ta'limi jurnali, 2001,



3. Sharipov Sh. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. Ped. fan. nom... diss. avtoref.-T.2000.

